


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.

Tel: (998-71) 208-56-01

e-mail: info@uzbekistonmet.uz

Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz



**THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”**

42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent

Ph: (998-71) 208-56-01

e-mail: info@uzbekistonmet.uz

Web site: www.uzbekistonmet.uz

2026-yil 25-avgust

01-02-08/7791-son

**Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on
tumani, Islomobod mahallasida
yashovchi fuqaro J. Abdullayevga**

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning rasmiy veb-sayti orqali 2026-yil 3-avgustdagi 712/26-son bilan kelib tushgan murojaatingiz belgilangan tartibda ko‘rib chiqildi.

Murojaatingizda ko‘rsatilgan holatlarni o‘rganish maqsadida “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan tegishli o‘rganish ishlari amalga oshirildi hamda murojaatingizda bayon etilgan hamda qonunbuzarlik sifatida talqin qilingan holatlar yuzasidan ushbu voqeda ishtirok etgan “Magistraltarmoqqurilish” filiali xodimlarining yozma tushuntirish xatlari olingan.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, Sizning mehnat shartnomangizda nazarda tutilmagan ishlarni bajarishga majburan jalb etish yoki mehnat huquqlaringizni buzish holatlari o‘z tasdig‘ini topmadi.

Shuningdek, murojaatingizda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 41-moddasi, Jinoyat kodeksining 205-moddasi hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 49-moddasi talablari buzilganligi haqidagi vajlaringiz yuzasidan mazkur holatlarga huquqiy baho berish va tegishli choralar ko‘rish vakolatiga ega bo‘lgan Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasiga tegishli tartibda ma‘lumotlar taqdim etilgan.

Mazkur masala yuzasidan Samarqand viloyati Urgut tumani Ichki ishlar boshqarmasi tomonidan vakolati doirasida tegishli o‘rganish ishlari olib borilayotganligi hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli qonuniy choralar ko‘rilishi ma‘lum qilindi.

Yuqoridagilarga asosan, murojaatingizda bayon etilgan holatlar “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan tegishli tartibda o‘rganilganligini hamda murojaatda keltirilgan vajlarning mazkur o‘rganish doirasida o‘z tasdig‘ini topmaganligini ma‘lum qilamiz.

Mazkur javobdan norozi bo‘lgan taqdiringizda, yuqori turuvchi organlarga belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega ekanligingiz bildiriladi.

**Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari**



S. Artikov